INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

UDK 547.551.525.211.1

CICER ARIETINUM MEVASINING KIMËVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSHLIGI

Xomidov Inomidin Ilmidinovich,
Andijon davlat tibbiyot instituti, tibbiy kimyo kafedrasi dotsenti,
kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
xomidov.70@mail.ru https://orcid.org/ 0000-0001-7050-9302
Soliyeva Dilnura G’olibjon qizi,
Andijon davlat tibbiyot instituti, farmatsiya fakul’teti, 2-kurs talabasi.
dilnura400lite@gmail.

Annotatsiya: Ushbu maqolada dukkakli o‘simliklar qatoriga kiruvchi no‘xatning tabiatda tarqalganligi, kimyoviy tarkibi, almashinmaydigan aminokislotalarga boyligi, dorivor xususiyatlari, xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda qo‘llanilishi to‘risidagi ma'lumotlar hamda tadqiqotlar natijalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: no‘xat, *Cicer arietinum,* turkum, oila, oqsillar, uglevodlar, vitaminlar, mikroelementlar, almashinmaydigan aminkislotalar.

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА ПЛОДОВ CICER ARIETINUM

Аннотация: В данной статье проанализированы данные и результаты исследований гороха, относящегося к бобовым растениям, по распространенности в природе, химическому составу, богатству незаменимыми аминокислотами, лечебным свойствам, применению в народной медицине и современной медицине.

Ключевые слова: нут, *Cicer arietinum*, род, семейство, белки, углеводы, витамины, микроэлементы, незаменимые аминокислоты.

CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES OF CICER ARIETINUM FRUITS

Annotation: This article provides information about the history, composition, medicinal properties, the use of peas in traditional and modern medicine, analysis of research results.

Key words: chickpea, *Cicer arietinum*, genus, family, proteins, carbohydrates, vitamins, microelements, essential amino acids.

O‘simliklar olami sir-sinoatlarga boy. Ba'zan ma'lum bir o‘simlik to‘g‘risida barcha ma'lumotlar bordek, ayondek tuyuladi. Lekin tadqiqotlar, izlanishlar ayni o‘simlik to‘g‘risida, uning ozuqabopligi, shifobaxshligi to‘g‘risida yangi yangi ma'lumotlarni taqdim qilmoqda. Olimlar tomonidan o‘simliklar o‘rganilgani sari ularning foydali xususiyatlari yanada ochilib bormoqda. Muntazam ravishda olimlar e'tiborini tortib kelayotgan, tadqiqotlar ob'ekti bo‘lib qolgan to‘yimli ozuqalarga, shifobaxsh moddalarga boy o‘simliklardan biri bu – no‘xat.

No‘xat – bo‘yi 80 sm gacha bo‘lgan bir yillik o‘tsimon o‘simlik. Poyasi ancha mustaxkam, sershox, yer bo‘ylab yotib qolmasdan tanasini tik ushlab turadi [1]. No‘xat turkumiga kiruvchi o‘simliklarni sinflash birinchi marta 1929 yili rus botanik olimi M.Popov tomonidan amalga

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

oshirilgan. Uning tomonidan bu tur o‘simliklarning kelib chiqishi gibrid tabiatli bo‘lib, bu turkumga kiruvchi o‘simliklar turlari *Vicia* turkumiga kiruvchi o‘simliklar belgilarini xam beradi degan xulosaga kelingan. Olib borilgan izlanishlarning natijasi o‘laroq, no‘xatning xozirda Rossiya janubida va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan turlari *Cicer L* turkumiga kiritilgan [2].

No‘xat *Fabaceae* oilasiga kiruvchi *Cicer* turkumiga mansub bo‘lib, uning yurtimizda ko‘p uchraydigan turi *Cicer arietinum* deb ataladi. No‘xat insonlarning ovqatlanish ratsionidagi oqsillar va almashinmaydigan aminokislotalarning asosiy manba'si hisoblanib, xozirda dunyodagi 50 dan ortiq mamlakatlar uni yetishtirish va yangi navlarini yaratish bilan shug‘ullanib kelmoqda. Jumladan, Avstraliya, Kanada, Hindiston, Eron, Meksika, AQSh, Rossiya, Yaqin Sharq va O‘rta Osiyo davlatlari shular jumlasidandir. Mualliflarning ta'kidlashicha mamlakatimizda *Cicer arietinum* – no‘xatning suvsizlikka ancha chidamli bo‘lgan 10 dan ortiq navlari yaratilgan bo‘lib, ular asosan lalmikor yerlarga ekilgan va ulardan har yili katta miqdorda hosil olib kelinmoqda [3].

No‘xat donida 30% gacha oqsil, 4% gacha kraxmal, 8% gacha yog‘lar, qand, sellyuloza, mineral moddalar va vitaminlar mavjud bo‘lib, ozuqabopligi bo‘yicha mol go‘shtiga yaqin turadi. Shuning uchun mamlakatimizda no‘xatni nafaqat lalmikor yerlarda balki sug‘oriladigan yerlarda xam yetishtirish rejalashtirilmoqda.





***Cicer arietinum* o’simligi va mevalari.**


Cicer arietinum No‘xat tarkibidagi oqsilning asosiy qismi almashinmaydigan aminokislotalarga boy bo‘lib, metionin va triptofanning miqdori bo‘yicha boshqa dukkakli o‘simliklardan ancha ustun turadi:





No‘xat ozuqabopligi, ta'mi va kaloriyaliligi bilan yashil no‘xatga yaqin tursada, lekin xazm bo‘lishi yashil no‘xatga nisbatan qiyinroq, sekin xazm bo‘ladi. No‘xatning yer ustki qismi: bargi va novdalarida inson organizmidagi xujayraning nafas olish xalqasi – Krebs xalqasining asosiy mahsulotlari bo‘lgan olma kislotasi va oksalat kisota ko‘p miqdorda bo‘ladi [4]:

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X



No‘xat tarkibida vitaminlardan A, RR, V_1, V_2 kabi vitaminlar mavjud bo‘lib, ular tirik organizmlardagi shapko‘rlikni, suyaklarning qiyshiq o‘sib qolishi kabi yomon asoratlarga olib keluvchi kasalliklarni oldini oladi va bu faktlar insonlar tomonidan no‘xat iste'molining naqadar ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Mikroelementlardan Mg, P, Ca, K, Na, S, Fe, Cl, I, Co kabilar no‘xat tarkibida mavjud bo‘lib, ular inson organizmidagi metabolitik jarayonlarning bir me'yorda borishini ta'minlab turadi. So va Fe qon xosil bo‘lishini amalga oshiruvchi, P va Ca suyaklar, tishlar, qon tomirlari devorlarining mustahkamligini ta'minlovchi, K, Na, Cl kabilar qonning osmotik bosimini bir me'yorda ushlanib turishida ishtirok etuvchi muhim biogen elementlar hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, no‘xat donida ozuqabop bo‘lmagan moddalar - tripsin aminokislotasining ingibitorlari miqdori loviya donidagidan 21.1 marta, yashil no‘xat donidagidan 2.5 marta kam.

No‘xat ildizi tuproqda azot hosil qilib beruvchi Rhizobiales turidagi bakteriyalar guruxini tutadi. Shuning uchun o‘zidan keyin ekiladigan ekinlar uchun juda qulay sharoitni yaratib beradi. Ya'ni tuproqda ko‘p miqdorda azot hosil qilib, tuproqqa ishlov berib qo‘yadigan hossasi bor. Ozarbayjonlik olimlarning ta'kidlashlaricha, ular o‘rgangan no‘xat turida aminokislotalarning barchasi mavjud bo‘lib, ulardan lizin, gistidin va arginin miqdori ancha ko‘p ekanligi aniqlangan. No‘xatdagi almashinmaydigan aminokislotalar miqdorini ba'zi mahsulotlarning oqsil tarkibi bilan solishtirish shuni ko‘rsatadiki, no‘xatdagi lizin, triptofan, treonin, gistidinning miqdori sut, go‘sht kabi mahsulotlardagi oqsillar tarkibidagiga juda yaqin turgani holda bug‘doy unidagi oqsildan ancha ustun turadi.

No‘xatning organizm uchun foydali xususiyatlari insoniyatga qadimdan ma'lum. Xalq tabobatida xam, zamonaviy tibbiyotda xam no‘xatning bir qancha shifobaxsh xususiyatlaridan unumli foydalanib kelinmoqda. Dukkakli o‘simliklar donlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlar shifokorlar tomonidan birinchi navbatda qandli diabet va glyutenning ko‘chirib o‘tkazilmasligi holatlarida davolovchi ozuqalar sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, no‘xatli ovqatlar iste'mol qilinganda organizmdagi Fe yetishmovchiligining oldi olinadi. No‘xat ko‘z kasalliklarida xam juda foydali bo‘lib, namlangan no‘xatni oz-ozdan iste'mol qilib yurilsa ko‘z kataraktasining oldi olinadi. Buning uchun yarim stakan no‘xatni yaxshilab yuvib, stakanni to‘ldirib issiq suv quyiladi va kechasi bilan qoldiriladi. Ertasiga suv bo‘kib, deyarli pishgan no‘xat organizm uchun juda ijobiy ta'sir qiladigan holatga keladi.

Cicer arietinum o‘simligining mevasi – no‘xat tarkibida almashinmaydigan aminokislotalardan lizin, triptofan, treonin, gistidinning ko‘p miqdorda ekanligini, A, K, RR, S, V_1, V_2, V_6 kabi vitaminlarning mavjudligini va Mg, P, Ca, K, Na, S, Fe, Cl, I, Co kabi biogen elementlar nisbatan ko‘pligini inobatga olib, no‘xat asosida immunitetni mustahkamlovchi, II-turdagi qandli diabetni oldini oluvchi, davolashda yordam beruvchi oziq-ovqat qo‘shimchasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index:* *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

1. Асқаров И.Р. // Табобат қомуси. // Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2019.
2. Попов М. Г. // Род *Cicer* и его виды. К проблеме происхождения средиземноморской флоры. // Труды по прикладной ботанике, генетике и селекции. - 1929. - Т. 21, вып. 1. - С. 3 - 240.
3. Нарбабаева Р.В, Ниёзов Х.Н., Пардаев Ш.Т., Расулова Н. // Оценка засухоустойчивости узбекиских местный сортов нута (Cicer arietinum L.) // "Science and Education" Scientific Journal -2020. -Vol. 1. - Issue 1. – 106 – 110.
4. Магомедов Г.О., Садыгова М.К., Лукина С.И. // Пищевая и биологическая ценность нута // Зернобобовые культуры – развивающееся направление в России: сб. матер. Первого Междунар. форума. Омск: Полиграфический центр КАН, 2016. С. 86 – 90.